

**XALQ MAQOLLARI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF
O'QUVCHILARINI MEHNAT INTIZOMIGA O'RGGATISH YO'LLARI**

N. O'Xudoyberdiyeva

BuxDPI o'qituvchisi

Z. Ibragimova

BuxDPI 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat intizomiga o'rnatish yo'llarining xalq maqollaridan foydalangan holda amalga oshirish usullari haqida mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, maqol, milliy mafkura.

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan fanlar, ushbu fandan ilmiy ma'lumot berish bilan bir qatorda o'quvchilarni mehnat intizomiga ham o'rnatib borishi mumkin. O'quvchilarni, avvalo, oiladan, so'ngra maktabgacha ta'lim muassalarida, undan so'ng maktab davrlarida ularni mehnat intizomiga o'rnatib borsak, kelajakda shuncha ular mehnat intizomiga, mehnat qilish madaniyatiga, mehnatni qadrlashga o'rjanib boradilar.

Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, odob-axloqiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Yaxshi tarbiya ko'rgan kishi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o'laydi. Ta'lim va tarbiya ishlari ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud jamiyatning ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilgan. Boshlang'ich ta'lim bola aqliy tarbiyasini kuchaytiradigan, tarbiyaning boshqa yo'naliishlari bilan uzviy bog'liqlikda olib boriladigan, bilim va dunyoqarashning ko'lalimi kengaytiradigan, eng asosiysi, yuqori sinflarda muvaffaqiyatli ta'lim olishini ta'minlaydigan bosqichdir. Shu tufayli boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan barcha fanlar, ularning bo'limlari, har bir mavzu va tushunchalar alohida e'tibor bilan tanlanadi. Buning uchun har bir fanning mazxmuniga kirgan mavzular mutaxssis va olimlar tomonidan alohida tanlanadi. Mana shu jarayonda yuqorida aytganimizdek, xalq og'zaki ijodi namunalari ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ular ming-ming yillar davomida chig'iriqdan o'tib bizgacha saralanib kelgan. Xalq og'zaki ijodi yosh avlodni tarbiyalashda bitmas tunganmas xazina bo'lib uning ahamiyati benihoya kattadir. O'zbek xalqi bolalarni tarbiyalash sohasidagi g'oyalari, tajribalarini yo'llari, usul va choralarini o'zbek xalq pedagogikasida

to'la-to'kis mujasamlashgandir. She'r, maqol, matal, dostonlar vositasida bolalarni o'z eliga, millatiga, ona diyoriga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifalaridir.

Bolalar asta-sekin o'zlari tanlagan she'r, matal, maqol, ertak, hikoyalari yordamida atrof-muhit bilan o'zlari hurmat qilgan borliq, olam bilan tanishib boradilar.

Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat,adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirish lozim. Ushbu qadriyatlarni xalqimizni aql-zakovat mahsuli hisoblangan maqollar orqali singdirish eng samarali usullardan hisoblanadi. Chunki ular xalqning ijodkorligining mahsuli bo'lib, insonlarning talab ehtiyojlari zaminida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tasavvuri, dunyoqarashi, tafakkuri, orzu-armonlari, e'tiqodi va axloqodobi qoidalarini o'zida mujassam etgan jamiyatning ma'naviy madaniy rivojiga katta hissa qo'shuvchi moddiy va ma'naviy boyligi bo'lган. Chunki ularda xalqning pedagogik g'oyalari, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalari, ma'naviy axloqiy qarashlarlar o'ziga xos yo'sinda aniq ibratli va qiziqarli tasavvurlardan himoya qilingan voqeа-hodisalarda o'rnak bo'ladigan o'gitlar berilgan. Xalqning hayotiy tajribasi, milliy an`analari, urf-odatlari va falsafasi bayon etilgan. Chunonchi maqollar xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalar, hayotiy kuzatishlar asosida vujudga kelgan fikrlarini lo`nda, aniq va obrazli ifodolovchi bir vosita hisoblanadi.

Boshlang`ich sinf ona tili va o`qish savodxonligi, odobnama darsliklarini tahlil qiladigan bo`lsak, darsliklarda quyidagi xalq maqollarini uchratish mumkin:

1. Bir daraxtdan o'n bo'lur, o'ntasidan-o'rmon
2. Bir tup tok eksang, bir tup tol ek.
3. Yoz bor, qish bor, dangasada ish bor.
4. Birni kessang o`nni ek.
5. Baxt yo'lda emas, qo'lda.
6. Baxt qushini ushlamoq uchun, baxt oviga chiqmoq kerak.
7. Bog'bonning tol ekkani-o'ziga nom ekkani.
8. Dangasaning ishi bitmas.
9. Baxtli odamni izlama, baxt yo'lini izla.
10. Tayyorga-ayyor.
11. Erinchoq ekinchidan erinmagan mashoqchi o'zibdi.
12. Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar.
13. Yomon kosib bigiz tanlar.

14. Ishlikning ishi bitar, ishsizning kuni o'tar.
15. Ishi yo'q eshak hurkitar.
16. Ishi yo'q chivin tutar.
17. Ishsiz-iyagin uqalar.
18. Ishchan yerni yashnatar, yalqov yerni qaqshatar.

Misol tariqasida quyidagi “Birni kessang, o'nni ek” maqolini o'quvchilarga tushuntiradigan bo'lsak, xalqimiz bu va bu singari maqollar orqali yoshlarni mehnatsevarlikka, ko'chat ekish, bog' yaratishga undaydi. Shu bilan birgalikda o'quvchilarda birovning mehnatining qadriga yetishga, boshqalar mehnatini qadrlashni o'rgatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bu maqolni tushuntirishda ota-bobolarimiz o'gitlaridan foydalanib tushuntirilishi yanada xam samaraliroq bo'ladi. Bu maqolni o'quvchilarga tushuntirishda bobomiz Amir Temurning amal qilgan sifatlaridan biri bo'lган “Bitta daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim” so'zlaridan foydalanish mumkin. Bu bilan o'quvchilarda mehnatsevarlik, mehnatning qadriga yetish kabi sifatlar bilan birgalikda ota-bobolarimizga bo'lган hurmat xissini shakllantirishimiz mumkin.

Bundan tashqari o'quvchilarni maqollar orqali mehnat intizomiga o'rgatishga xizmat qiluvchi bir qancha misollarni keltirib o'tishimiz mumkin. Masalan: “Odobli bola elga manzur” maqolini o'quvchilarga tushuntirishda maqolni mazmunini tushuntirish bilan birgalikda uning tarbiyaviy ahamiyatini ham tushuntirib o'tishni joiz deb hisoblaymiz. Bu maqol orqali o'quvchilarni odobli bo'lishga, odob insonning ko'rki ekanligi, elga, xalqqa odobli bolalarning yoqishi, manzur kelishi, o'zidan kattalarga salom beradigan, ozoda yuradigan, tartib intizomli, sarishtali, ko'cha-ko'yda o'zini tuta biladigan, urishmaydigan, yaxshi o'qiydigan, kattalarni hurmat qiladigan, kichiklarga izzatda bo'ladigan, ota-onani xurmat qiladigan, gapiga quloq soladigan, aytganlarini bajaradigan bolalar bo'lish kerak ekanligi tushuntiriladi.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarini yoshligidan mehnat intizomiga o'rgatish ularni kelajakda o'z kasbining mohir ustasi, yetuk kadr, jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shadigan fuqaro bo'lib yetishida poydevor vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Адизова Нигора Бахтиёрова. Оқсоқол Бува, Бола Ба Хон Образлари Қизиқмачоқлар Талқинида. Journal of innovations in social sciencesjournal of innovations in social sciences. 02 Issue: 01 | 2022.

2. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Www.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |
3. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo‘llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
4. AB Rakhmonovich, AN Bakhtiyorovna. THE MAIN MOTIVES AND TASKS OF CHILDREN’S FOLKLORE. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)
5. Нигора Бахтиёровна Адизова, Хилола Худойбердиева. КИЗИҚМАЧОҚЛАРДА ОҚСОҚОЛ ВА ХОН ОБРАЗЛАРИ. Scientific progress
6. Nigora Baxtiyorovna Adizova. Boshlang’ich sinf o ‘quvchilari nutqini o’stirishda mustaqil ishlarning o ‘rni va ahamiyati. Scientific progress
7. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi’s spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
8. . NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children’s poet. Middle European Scientific Bulletin
9. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
10. AN Bakhtiyorovna, AN Bakhtiyorovna. The role of the fun genre in children’s spiritual development. Middle European Scientific Bulletin 4, 38-40
11. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences.
12. Jumayev, Ruzokul. "Sadriddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).
13. Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АРАБЧА ТОПОНИМЛАР." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).
14. Xoliqulovich J. R. SADRIDDIN AYNIYNING “ESDALIKLAR” ASARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzokul Xoliqulovich Buxoro davlat universiteti katta o ‘qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 34-37..

15. Xoliqulovich, Jumayev Ruzokul. "Using anthropometric units in "Esdaliklar" by Sadriddin Ayniy." European Journal Of Innovation In Nonformal Education 2.2 (2022): 295-298.
16. Jumayev, Ruzokul. "SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA OYKONIM TURLARINING QO 'LLANISHI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 7.7 (2021).
17. Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САНЪАТИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2021).
18. Xoliqulovich, Jumayev Ruzokul. "Influence of Sadriddin Aini life and works in spiritual and moral development of students." Middle European Scientific Bulletin 11 (2021).
19. Jumayev, Ruzokul. "Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2020).
20. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
21. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
22. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.